JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY SCIENCES AND INNOVATIONS

VOLUME 5, ISSUE 05
MONTHLY JOURNALS

ISSN NUMBER: 2751-4390
IMPACT FACTOR: 9,08

# THE HARMONY OF LOVE AND ART IN THE WORK OF DILSHODI BARNO: ANALYSIS OF THE GHAZAL WITH THE LYRIC "KILMASANG"

**Dilovarkxon Jurayeva**

dilovarxonjorayeva05@gmail.com

Student of Kokand State University

https://doi.org/10.5281/zenodo.20140153

**Annotatsiya:**Maqolada shoira Dilshodi Barnoning “Kilmasang” radifli oshiqona g‘azali mazmun va shakl jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ilohiy muhabbat talqini, badiiy san’atlar — mubolag‘a, tashbeh, istiora, talmeh kabi ifoda vositalarining qo‘llanilishi hamda mumtoz she’riyat an’analari bilan uyg‘unligi ilmiy asosda yoritilgan.

**Annotatsiya:**V state analiziruyutsya soderjanie i forma romanticheskoy gazeli s rifmovkoy «Kilmasang» poetessы Dilshodi Barno. V proizvedenii issleduyutsya interpretatsiya bojestvennoy lyubvi, ispolzovanie xudojestvennых sredstv vыrazitelnosti, takix kak giperbola, metafora, allegoriya i inoskazanie, i yeyo sootvetstvie traditsiyam klassicheskoy poezii na nauchnoy osnove.

**Abstract:**The article analyzes the content and form of the poetess Dilshodi Barno's romantic ghazal "Kilmasang" with a rhyme. The work explores the interpretation of divine love, the use of artistic means of expression such as hyperbole, metaphor, allegory, and allegory, and its harmony with the traditions of classical poetry on a scientific basis.

**Kalit so‘zlar**: mumtoz she’riyat, g‘azal, ilohiy muhabbat, radif, badiiy san’at, istiora, talmeh, poetik an’ana

**Klyuchevыe slova:** klassicheskaya poeziya, gazel, bojestvennaya lyubov, radif, xudojestvennoe iskusstvo, metafora, talme, poeticheskaya traditsiya

**Keywords:** Classical poetry, ghazal, divine love, radif, artistic art, metaphor, talmeh, poetic tradition.

**Dilshodi Barno (1800-1905/6)**

Naylayin holimga bir yo‘l, yor, parvo qilmasang,
Bu malohat bog‘iga sayr ila ma’vo qilmasang.

Ishq o‘ti yongan zamon o‘churmoq uchun sepgali,
Na bo‘lurdi ko‘z yoshimni misli daryo bilmasang.

Rahm etursan ul yiroqdin mazharing qirin solub,
Sovrulurdi kullarim gar bu muammo qilmasang.

Ko‘zni yummoqlik mahol o‘ldi manga bu dunyodin,
Qo‘rqar erdim tiri chashming hukmfarmo qilmasang.

Tiyra erdi ro‘zgorim xajri ishqing davrida,
Ravshan o‘lmas erdi yuzdin pardani vo qilmasang.

Ishq bozoriga kirmoq bo‘ldi odat man uchun,
Kim bilur erdi husn narxini savdo qilmasang.

Qo‘rqaman, Barno, bu husnimni xazon etmoq uchun,
Do‘sti nodondek vasl vaqtini yag‘mo qilmasang.

**G‘azal vazni**

**Lug‘at**

Malohat - go‘zallik,chiroy, husn
Ma’vo- boshpana, makon
Maxzan – xazina, qimmatli mol-ashyo saqlanadigan joy,ganj
Mazhar- hozir bo‘lish, tajalli, aks etish
Tiri chashm –qora ko‘z
Hukmfarmo- buyruq beruvchi, hukmbardor
Tiyra - qora,qorong‘u, g‘am-g‘ussali, qayg‘uli, xira,nursiz
Yag‘mo - talon-taroj, g‘arotgarlik, buzg‘unlik
Ravshan - yorqin, yorug‘, tiniq, beg‘ubor, g‘am-g‘ussadan holi, g‘amsiz
Vo – ey (undov so‘z);ochiq

**Nasriy bayon**

1.Yorim mani holimga parvo qilmasang nima qilay, husnu-malohat bog‘iga tashrif buyurib, ( bir muddat bo‘lsada) makon tutmasang nima qilay.

2. Ko‘z yoshlarimni ishq o‘tini o‘chirish uchun daryo deb qabul qilmasang nima bo‘lar edi.

3.O‘zingni bizdan yashirmay rahm qilib bir ko‘rsatsang edi, (ishqingda kuyib) kulim ko‘klarga sovrulmas edi.

4. Hukm bilan (ko‘zing) nigohing o‘qlarini menga yo‘llamasang, bu dunyodan ko‘z yumish oson bo‘lmaydi.

5. Ishqing hijronida kunlarim qora, yuzing pardasini ko‘tarmasang (yuzing nurini taratmasang) yorug‘ bo‘lmaydi.

6. Ishq bozoriga kirib turishni odat qildim, sen husning bahosini savdoga quymaganingda (ishq bozoriga kirishni) kim ham bilar edi.

7. Nodon do‘stdek visol vaqtini mendan qizg‘onmasang, (u vaqtni kutib) husnimni xazon bo‘lishidan qo‘rqmayman.

**Sharh va izohlar**

Ushbu oshiqona g‘azal mumtoz she’riyat vakillari ijodi bilang ham ohang tarzda yaratilan, milliy-adabiy an’analarini cheklab o‘tmagan. She’rda shoira ilohiy muhabbat haqida kuylaydi. G‘azalda “qilmasang”radifi takrorlanib, “parvo, ma’vo, daryo, muammo, hukmfarmo, pardani vo, savdo, yag‘mo” so‘zlari bilan qofiyalanadi. Ijodkor g‘azalda nido, tashbeh, istiora, mubolag‘a, talmeh kabi badiiy san’atlardan unumli foydalangan. “Ko‘z yoshim misli daryo..., sovrulurdi kullarim...”-mubolag‘a badiiy san’ati, “malohat bog‘i, tiyra ro‘zgorim, ishq bozori” – istiora badiiy san’ati, “sovrulardi kullarim ( Alloh taolo bilan Muso alayhissalom uchrashuviga ishora)”

talmeh badiiy san'tiga va yana bir qator badiiy san'atlarga misollar ijodkor tomonidan mohirona qo'llanilgan.

She'rda lirik qahramon ma'shuqining beparvoligidan shikoyat qiladi, uning beparvoligi ishqqa to'la qalbiga ozor berishi, ahvolini borgan sari yomonlashayotgani, uning ulkan dardiga faqatgina yorining bir nazari, e'tibori kifoya qilishini izhor etadi. G'azalda baytma-bayt mashuqa qalbida hijron iztiroblari tadrijlanib, g'azal maqtasida yuksak ilohiy muhabbat qurboni obrazi to'liq namoyon bo'ladi.

Mumtoz she'riyatning an'anaviy shartlaridan voqif o'quvchi, she'rda ilohiy ishq tarannum etilganini bir qarashdayoq anglab oladi. Majoziy muhabbat ilohiy muhabbatga vosita bo'lishligi tasavvvuf nazariyasida, mutoz adiblar asarlarida aytib o'tilgan. O'zini anglashga bo'lgan ehtiyoj insonga hech tinchlik bermaydi. Borliq mohiyatini anglab borayotgan inson qalbida Buyuk Qudratga nisbatan muhabbat paydo bo'la boshlaydi. Anglanish darjasi qanchalik yuqorilashgan sari, oshiqlik maqomi ham shuncha yuklasaveradi, ishq olovi shiddatli tus oladi. Bandaning Yaratganga muhabbati – eng go'zal muhabbatdir, banda bu yo'lda har qanday jabru – jafolarga rozi, qar qanday qiyinchiliklarga bardosh qiladi.

Ko'zni yummoqlik mahol o'ldi manga bu dunyodin,

Qo'rqar erdim tiri chashming hukmfarmo qilmasang.

Oshiq hijron azoblari va jabru-jafolarga bardosh berishi evaziga mashuqining visolini talab qiladi, ya'ni mohiyatni anglab, o'sib borayotgan banda Buyuk Yaratuvchining roziligi - "vasl vaqti" uchun barcha borlig'i (husni)ni qurbon qilishga tayyordir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ushbu g'azal mumtoz she'riyat an'analariga sodiq holda, ilohiy muhabbat mavzusini tasavvufiy-estetik mezonlar asosida tarannum etadi. Shoira radif va qofiya tizimini puxta qo'llab, nido, tashbeh, istiora, mubolag'a, talmeh kabi badiiy san'atlar orqali lirik qahramonning ruhiy iztiroblarini ifoda etadi. G'azalda majoziy muhabbat ilohiy muhabbatga vosita sifatida talqin qilinadi, bu esa tasavvuf nazariyasiga mos keladi. Lirik qahramonning hijron va sabr orqali visolga intilishi, insonning Yaratganga bo'lgan muhabbatini anglash jarayonini badiiy shaklda aks ettiradi. Shu tariqa, g'azal ilohiy ishqning yuksak darajasini ifodalovchi poetik matn sifatida ilmiy-estetik jihatdan ahamiyatlidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Tanlangan asarlar, T., 1972;

2.Zebunniso, Dilshod va Anbar Otin she'riyatidan, T., 1981.

3. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-T.:2023.

4. Qodirova M., Dilshod, T., 1971.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil